YEROSTI SUVLARI KIMYOVIY TARKIBINING PARODONT TO‘QIMALARIGA TA’SIRI

Sankulov Jamshed Obloberdiyevich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Diplomdan keyingi ta’lim fakulteti, Stomatologiya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi,

sanakulovjamshed@gmail.com

Dolzarbligi.

Parodont kasalliklari zamonaviy stomatologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, ularning rivojlanishida mikrobiologik, mahalliy, umumiy va ekologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik omillar orasida ichimlik suvining sifati, uning kimyoviy tarkibi va mineralizatsiya darajasi alohida o‘rin tutadi. Yerosti suvlaridan doimiy foydalanish sharoitida parodont to‘qimalarining holatini o‘rganish, stomatologik kasalliklarning klinik-epidemiologik xususiyatlarini aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimdir.

Tadqiqot maqsadi.

Yerosti suvlarini iste’mol qiluvchi aholida parodont to‘qimalari holatini klinik va epidemiologik jihatdan baholash hamda yerosti suvlari iste’molining parodont kasalliklari rivojlanishidagi ehtimoliy etiologik ahamiyatini aniqlash.

Materiallar va usullar.

Tadqiqot dissertatsiya ishi doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, unda 130 nafar bemor va toza ichimlik suvi bilan barqaror ta’minlangan 45 nafar surunkali generalizatsiyalashgan parodontitli bemordan iborat taqqoslash guruhi o‘rganilgan. Tadqiqotda klinik-stomatologik tekshiruv, parodont to‘qimalari holatini baholash, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenik indekslarini aniqlash,

mikrobiologik, laborator, radiologik va statistik usullardan foydalanilgan. Yerosti suvidan foydalanishning parodont to‘qimalari destruksiyasiga ehtimoliy etiologik ta’sirini baholash uchun epidemiologik tahlil usullari qo‘llanilgan.

Natijalar.

Dissertatsiya natijalariga ko‘ra, yerosti suvidan foydalanuvchi o‘rganilgan populyatsiyada tishlarning nokarioz kasalliklari 2,2 baravar yuqori qayd etilgan. Parodont to‘qimalarining radiologik destruktiv o‘zgarishlari 23,6–37,8 baravar yuqori bo‘lgani aniqlangan. Yerosti suvi iste’moli va alveolyar suyak destruksiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik nisbiy xavf, etiologik fraksiya va Bredford Hill mezonlari asosida baholangan. Hisoblangan etiologik ulush 95,8–97,4% ni tashkil etgan. Olingan natijalar parodont kasalliklarini baholashda ekologik omillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa.

Yerosti suvidan foydalanish parodont to‘qimalari patologiyasi bilan bog‘liq muhim ekologik omillardan biri bo‘lishi mumkin. Parodont kasalliklarining profilaktikasida ichimlik suvi sifatini baholash, stomatologik tekshiruvlar, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasini yaxshilash va individual profilaktik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar

: yerosti suvlari, parodont kasalliklari, suvning kimyoviy tarkibi, alveolyar suyak destruksiyasi, ekologik omillar, stomatologik profilaktika.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Petersen P.E., Ogawa H. The global burden of periodontal disease: towards integration with chronic disease prevention and control. Periodontology 2000. 2012;60(1):15–39.

2. Nazir M.A. Prevalence of periodontal disease, its association with systemic diseases and prevention. International Journal of Health Sciences. 2017;11(2):72–80.

3. World Health Organization. Guidelines for Drinking-water Quality. 4th ed. Geneva: WHO; 2022.

4. World Health Organization. Chemical fact sheets: Fluoride. Geneva: WHO; 2022.

5. Sanakulov J.O. Клинико-эпидемиологические особенности заболеваний пародонта, связанных с употреблением подземных вод. Диссертационная работа. Самарканд: Самаркандский государственный медицинский университет; 2025.